1-Ma’ruza **Ta'lim texnologiyasining tuzilishi.**

(Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari. Axborot texnologiyalari haqida tushuncha, ularning tasnifi)

Kalit so‘zlar: *ta’lim texnologiyasi, ta’lim vositalari, axborot tcxnologiyalari, texnologiya, telekommunikatsiya vositalari, kompyuter, multimedia vositalari, axborotlashtirish, pedagogik jarayon, pedagogik texnologiyalar.*

Zamonaviy o‘quv fani bo‘lgan “Axborot texnologiyalari” fanida axborot, uning xossalari, axborot tizimlari va vazifalari, axborotni qayta ishlash, axborotni amaliy ahamiyati va uning boshqa xususiyatlari o‘rgatiladi. “Axborot texnologiyalari” fani maternalika, fizika, informatika va boshqa qalor fanlar bilan bevosita bog‘liq.

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan - "texnos" (Techne) - san’at, hunar va "logos" (1ogos) - fan so‘zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma’nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi (1-rasm).

Axborot texnologiyalari – bu axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlashning usul va vositalari majmuidir. Axborot texnologiyalarining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo‘lib, ulami quyidagicha tavsiflash mumkin:



1-rasm.

ichki omillar – bu axborotning paydo bo‘lishi *(yaratilishi)*, turlari, xossalari, axborot ustida turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

tashqi omillar – bu axborot texnologiyalarining texnik-uskunaviy vositalari orqali axborot bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyalarining mazmunini quyidagi oddiy bir misol bilan tushintirish mumkin. Masalan, siz biror ma’mumot haqida toshqa bir viloyat (tuman, shahar, respublika), qolaversa boshqa qit’ada yashovchi o‘rtog‘ingiz bilan fikr almashmoqchisiz deylik. Buni turli yo‘llar orqali amalga oshirishingiz mumkin. Siz o‘rtog‘ingizga o‘z fikringizni *(o‘z navbatida, o‘rtogingiz ham sizga javoban)* quyidagi usullar orqali yetkazishingiz mumkin:

1. aloqa bo‘limi orqali (yozma ravishda);
2. telefon tarmoqlari orqali (og‘zaki);
3. zamonaviy telekommunukatsiya vositalari orqali.

Hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu usullardan foydalanish natijalari turlicha bo‘ladi va natijalarga qarab, qaysi usuldan foydalanishni o‘zingiz belgilab olasiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoilida, albatta, biror yumushni bajarishdan oldin uni amalga oshirish uchun ketadigan mablag‘ni chamalab ko‘rishingiz lozim, aks holda uni amalga oshira olmasligingiz mumkin. Albatta, yuqorida ko‘rsatilgan usullardan foydalanish uzatilayotgan axborot mazmuni va mohiyatiga bog‘liq.

Pirovardida, o‘zingiz uchun iqtisodiy jihatdan eng arzon (hechh bo‘lmaganda arzonrog‘i) va sifati yuqori bo‘lgan usulni belgilab olasiz. Axborotni uzatish usullariga kelsak, 1 va 2 bandlarda ko‘rsalilgan usullar bilan yoshligingizdayoq tanishib olgansiz va undan foydalanishni yaxshi bilasiz. Zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish esa ular bilan muloqot ko‘nikma va malakalariga bog‘liq. Shuning uchun dastlab zamonaviy telekommunikatsiya vositalarining o‘zi nima ekanligini tushinib olishingiz kerak.

Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo‘lib, unga “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fanidan ma’lum bo‘lgan

kompyuter, multimedia vositalari. kompyuter tarmoqlari, Internet, intranet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, bilimlar ombori kabi tushunchalar kiradi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab axborollashlirish sohasi keskin rivojlanib ketdi. Bizning asrimiz, ya'ni XXI asrni axborotlashtirish va kommunikatsiya asri deb bejiz atashmaydi. Axborotlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, uning asosiy xususiyatlari qanday, degan savollar hozirgi zamon hamjamiyatidagi har bir fuqaroni qiziqtirishi tabiiy. Chunki inson faoliyatini axborotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda har bir tashkilot, o‘quv muassasasi, firma va ishlab chiqarishning barcha sohalarida rahbar va xodimlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruv jarayonlarini ma'lum darajada avtomatlashtirishga oid muammolarni yechish bilan shug‘ullanadi. Bunda ular maxsus firmalarning mutaxassislari bilan uchrashadi, ularning faoliyati bilan yaqindan tanishadi, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarni ko‘radi va pirovardida o‘zida avtomatlashlirish uchun kerak bo‘ladigan texnik jihozlarni xarib qiladi. Albatta, tashkilotlarga o‘rnalilgan avtomatlashlirish jihoztari yildan-yilga yangilanib, texnik jihatdan takomillashtirib boriladi.

Ta'lim texnologiyalarini o‘qitish jarayoning sifat va samaradorligini ta'minlaydigan kasbiy texnologiya va interfaol o‘qitish usullari yuzasidan tayanch bilimlar berishga mo‘ljallangan bo‘lib, oliy ta'lim sohasida muhim o‘rniga ega. Uni o‘rganish kasbiy va umummilmiy salohiyatning mustahkamlanishiga yordam beradi va bo‘lajak pedagoglarni ta'lim texnologiyalarining konseptual asoslari bilan tanishtiradi hamda o‘qitish jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi.

Hozirgi paytda barcha pedagog-psixolog olimlar ta'lim texnologiyalarga berilgan eng mukammal ta'rif sifatida YuNESKOning quyidagi ta'rifini tan olishadi: “Bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o‘zaro uzviy bog‘liq

holda ko‘rib, butun ta’lim jarayonini loyihalashda va amalda qo‘llashda majmuaviy yondashuv usulidan foydalanishdir”. Yuqorida keltirilganlardan xulosa shuki, pedagogik texnologiyalarning asosiy tushunchasi, o‘quv jarayoniga majmua sifatida yondashishdir. “Bunda ta’lim-tarbiya ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o‘zaro funksional bog‘liqlikda bo‘lib, bir butunlikni, ya’ni majmuani tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuyining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi”.

Ko‘rinib turibdiki, ta’lim texnologiyasi asosini ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida bu jarayonni to‘liq bajarish g‘oyasi tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati ta’lim jarayonini tizimlashtirishdan – uni aniq rasmiylashtirilgan va qismlari bo‘yicha aniq elementlarga bo‘lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat. Yuqoridagi qoidalardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, ta’lim - texnologiyalarning predmeti - ta’lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, o‘quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta’lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Ma’lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo‘lishi kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modeli jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Demak, kadrlar tayyorlash milliy modeli ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat ijtimoiy buyurtmasini ifodalaydi. Faqat davlat ijtimoiy buyurtmasigina ta’lim va tarbiyaning aniq maqsad va vazifalarini belgilab beradi yoki oliy ta’lim uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi. Shuni

alohida ta’kidlash kerakki, pedagogik tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va ta’lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsad esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bosh bo‘g‘ini hisoblanib, u pedagogik tizimning qolgan elementlarini o‘z vaqtida yangilash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ta’limtarbiya tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatining mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasmda keltirilgan):



2-rasm. Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim texnologiyalarni qo‘llash zaruriyatining mohiyati.

Demak, pedagogik texnologiyalarning markaziy muammosi - talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Pedagogik texnologiyalar» fanining asosiy maqsadi - kasb ta’limi (iqtisodchi-pedagog) yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni fanni o‘rganishda qo‘llanadigan ta’limning zamonaviy texnologiyalari bilan tanishtirish va kelajakda o‘z faoliyatlarida interaktiv usullar qo‘llashni o‘rgatishdir.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarni kiritish va ularni qo‘llashda quyidagi vazifalar belgilanadi va hal etiladi: - pedagog-o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim texnologiya asoslari bilan tanishtirish - ma’ruza, adabiyotlar tavsiya etish; - zamonaviy ta’lim texnologiyalar asosida ishlashni xohlovchi fidoyi o‘qituvchilarni aniqlash. Ular orqali pedagog-o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan ko‘zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini etkazish; - zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida ishlamoqchi bo‘lgan pedagog-

o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llash jarayoniga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish:

- ta’lim (tarbiya) jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish, ta’lim (tarbiya) jarayonida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash, ta’lim (tarbiya) jarayoni mohiyatini bashoratlash (taxmin qilish) va uning samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, usul hamda texnik vositalarni tanlash, ta’lim jarayonida talabaning erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma’lum ko‘nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o‘rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash, talabalar faoliyatini yo‘naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish bilan bog‘liq individual maslahatlar berish, seminarlar, treninglar, ko‘rgazmali darslar tashkil etish;

- zamonaviy ta’lim texnologiyalar asosida ishlovchi pedagogo‘qituvchilarning ta’lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorligini baholashning ishonarliligini ta’minlash uchun uning monitoringini olib borish, kuzatuv va tahlillar o‘tkazish, metodik yordamlar ko‘rsatish va ularning hisobotlarini eshitib borish;

- zamonaviy ta’lim texnologiyalar asosida ishlovchi pedagogo‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyihasini mashg‘ulotlar jarayonida sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ishlashning afzalliklarini innovator o‘qituvchilarni kafedra yig‘ilishlaridagi ilmiy-uslubiy seminarlarda, oliy o‘quv yurtlari ilmiy kengashlarida chiqishlarini tashkil etib, pedagogik jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash;

- oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ishlovchi innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlar zarur didaktik va metodik materiallar, texnika vositalari bilan ta’minlanishi zarur;

- ta’lim texnologiyalar va undan ta’lim jarayonida foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan ilg‘or pedagog-o‘qituvchilardan innovator pedagogik jamoani shakllantirish va h.k. Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi

ta’lim-tarbiya jarayonida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va raqobatbardosh malakali mutaxassislarni tarbiyalashga imkon beradi.

Kompyuterlar texnologiyalari. Hozirgi texnologiyalar kompyuterlarda videoyozuvlarni amalga oshirish, hamda o‘zingizning raqamli kamerangizdagi rasmlarni onlayn tarzda oilangiz va do‘stlaringiz bilan baham ko‘rishingiz mumkin. Bu va shunga o‘xshagan texnologiyalar bugungi kunlik hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Bular ayniqsa: uyda, maktabda, yoki ishda.

Texnologiya sizga axborotlardan samarali foydalanish va qidirish, d o ‘stlaringiz va boshqalar bilan fikrlar, rasmlar va videolarni baham k o ‘rish; boshqa odamlar bilan muloqot qilish va uchrashish, moliyaviy masalalarni boshqarish, xizmatlar va tovarlardan foydalanish, o ‘yinlar o ‘ynash yoki dam olish vositalarining boshqa manbalaridan foydalanish, hayotingizni va faoliyatingizni tartiblash va biznes faoliyatlarini oxiriga etkazishni samarali amalga oshirishga imkon yaratadi. Texnologiya vositasidan ushbu yumushlarni bajarishda foydalana oladigan odamlar bugungi kunda texnik faollar deb yuritiladi. Raqamli sohadagi (Digitally) bilimdonligingizni saqlab qolishingiz uchun o ‘zgarib borayotgan texnologiyalar bilan qadamba-qadam borishingiz kerak.

Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon-bu mehnat qurollari bilan mehnat ob’ektlari (xom ashyo)ga bosqichma - bosqich ta’sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchimashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta’rifni tadqiqot mavzusiga ko‘chirish mumkin, ya’ni: PT - bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.

Aynan ana shu mazmunda “texnologiya” termini va uning “o‘qitish texologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta’limtexnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko‘plab ifodalarga ega bo‘ldi.



3-rasm.

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta 'lim texnologiyasi ta'lim oluvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u ta'lim oluvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Odatda, "Texnik texnologiya" atamasi dastlab ishlab chiqarishda qo'llanilgan bo'lib, unga xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlarga ishlov berish yoki ularning tarkibini, xususiyatlarini, tayyorlanishini, q o'llanish sohasini o'zgartish usullari haqidagi fan sifatida tushunilgan.

Fan-texnikani yuksak taraqqiyoti tufayli texnologiya tushunchasi ham takomillashib, mazmunan chuqurlashib borgan. Patent, litsenziyalar sotiladigan va sotib olinadigan bo'lgach, texnologiya deganda tayyor mahsulot olish, xomashyo va materiallarga ishlov berish usullari, bajariladigan ishlarning ketma-ketligi va qanday tarzda bajarilishi haqidagi hujjat ham tushuniladigan bo'ldi. Masalan, sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulot, aytaylik, detal loyihalanganda qanday materialdan tayyorlanadi, shakli qanday bo'ladi, buning uchun standart belgilari, chizmalarga ulardagi olchamlarni aniqlash va boshqa talablar aks ettiriladi, fan-texnika



4-rasm. Ta’lim texnologiyasining komponentlari

taraqqiyoti “Texnologiya”ni fan sifatida ham o‘rganishni obyektiv zaruriyat qilib qo‘ydi.



5-rasm.

U fan sifatida fizik, ximik, mexanik va boshqa qonuniyatlarni aniqlash orqali mahsulot ishlab chiqarishning samarali usullarini o‘rganish, yangilarini topish va tajribada sinashni o‘rganadi.1 Texnologiyani fan sifatidagi vazifasi-moddiy resurslar va vaqtni eng kam sarflashni talab qiladigan samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda qo‘llash maqsadida fizik, ximik, mexanik qonuniyatlarni topish va amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi.



6-rasm. O‘qituvchi texnologilari

Ishlab chiqarishda - “texnologiya” atamasining mazmunmohiyatini anglatuvchi quyidagi tushunchalar mavjud:

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan yakuniga etkaziladigan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita - ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, sharoitlarini belgilaydi. Umuman, ishlab chiqarishdagi

texnologiyada turli xomashyo materiallariga ishlov berish operatsiyalari yuqori darajali kasb ustalari tomonidan bajarilsagina mahsulot sifati kafolatlanadi.

Ta’limni texnologiyalashtirish bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Ta’lim texnologiyasining markaziy maqsadi – ta ’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta ’lim maqsadiga erishishni ta ’minlashdan iborat.

Ta’lim texnologiyasi – bu sohadir. Ta’lim texnologiyasi ta ’lim uchun mos keluvchi biror bir texnologiyani anglatadi. Bu ma’nodan tashqari va tadqiqotan an’anasiga ko‘ra, ta ’lim texnologiyasi uchun boshqa nomlar ham bor, masalan:

• instruksional texnologiya;

• ta ’lim kommunikatsiyalari va texnologiyasi;

• o‘rganish texnologiyasi.

Ta’lim texnologiyasi - instruksional texnologiya sifatida. U instruksional loyihalash nazariyasi va metodologiyasini to ‘ldiradi va uni yaxshilaydi. Bu yo‘nalish o‘z ichiga internet orqali o ‘rganish, masofaviy o‘qitish, multimediya dizayni kabi tadqiqot vositalarini oladi.



7-rasm. Texnologiyalar integratsiyasi

Ta’lim texnologiyalarning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni

qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo‘nalishlarning har biri ta’lim-tarbiya masalalariga o‘ziga xos yondoshadi. Shu sababli «Pedagogik texnologiya» fanining falsafiy yo‘nalishi uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, jamiyatning ma’lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko‘rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Ta’lim texnologiyalarning pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o‘quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi ta’minlanadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o‘rin egallab bormoqda.

Ta’lim texnologiyalarning psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy hulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to‘liq hisobga olishi talab etiladi.

Ta’lim texnologiyalarning fiziologik asosi o‘quvchilarning turli yoshdagi fiziologik hususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o‘g‘il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog‘lom avlodni voyaga etkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ta’lim texnologiyalarning gigienik asosi ta’lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta’sirlarni bartaraf qilish, o‘quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, o‘quvchining va o‘qituvchining ish o‘rni, jihozlar, o‘quv yuklamalarining me’yorlari, didaktik vositalarning qulayligi sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya,

ekologiya talablariga, insonparvarlik g‘oyalariga muvofiq bo‘lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi. Bu talab va me’yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyani amalga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o‘rganish bilan maktab gigienasi fani shug‘ullanadi.

Ta’lim texnologiyalarning mafkuraviy asosi uning milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi tamoyillarini o‘zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoiy, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga etkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ta’lim texnologiyalarning huquqiy-me’yoriy asosi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va meyoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Bular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlar; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, Vazirlar qaror va buyruqlari, ular asosida tayyorlanib o‘rnatilgan tartibga tasdiqlangan nizomlar, ustavlar va boshqa me’yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Ta’lim texnologiya jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me’yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Xulosa. Olimlar tomonidan “metodika” va “ta’lim texnologiyalari” tushunchalarini bir xil qarash noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Metodikani texnologiyadan farqlab turadigan ikkita asosiy belgilari:

a) ta’lim texnologiyalarida talimning so‘ngi natijasi ta’minlangan bo‘ladi;

b) amalga oshirish jarayoni oldindan loyihalashtirilgan bo‘ladi. Pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan ta’limda faoliyat ko‘rinishida ko‘nikma va malakalar amalga oshiriladi, ma’lumot ko‘rinishida o‘quv materiallari o‘zlashtiriladi. Natijada nazariy va amaliy bilimlarning mushtarakligi kuzatiladi. Pedagogik texnologiyalar strukturasiga quyidagilar kiradi:

a) ta’lim texnologiyalarining konsentual asosi;

b) mazmuniy qism (maqsadlar, ta’lim mazmuni);

v) protsessual qismi (o‘quv jarayonini tashkil etish, talabalar o‘quv faoliyatining metodlari va shakllari, o‘qituvchining faoliyati, ta’lim jarayonini boshqarish, o‘quv jarayonini tashxis qilish).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.

2. “Axborotlashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni.

3. «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni.

4. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni.

5. Nazarov I.U. Ta’limda axborot texnologiyalari 1 va II – tomlar. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun.. T.: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2019. – 363 b.

6. Назаров И.У. Информационные технологии в образовании. Учебник для студентов высших педагогических учебных заведений. T.: Lesson Press, – 2020. – 417 c.

5. G‘ulomov S.S. va boshqalar: «Axborot tizimlari va texnologiyalari», T., 2000.

6. Makarova M. “Informatika”, Uchebnik, Pod red. prof. 2002. – 770 b.